

**BUILDERS OF THE FUTURE**

journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>

**THE IDEA OF STRUGGLE AGAINST IGNORANCE IN CONTEMPORARY IRANIAN LITERATURE**

Ziyodakhon Jurayeva

Graduate School of Iranian and Afghan Studies

Master's Student, 1st Year

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

O. Turdiyeva

Associate Professor at Tashkent State University of Oriental Studies

Graduate School of Iranian and Afghan Studies, Doctor of Philology

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amuzoda Khalili, Iran, lack of documentation, ignorance, paperwork, backwardness.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article provides a detailed analysis of the concept of bureaucracy in the contemporary Iranian governance system and its negative consequences that hinder social development. Amuzoda Khalili examines factors such as paperwork, ignorance, and the rise of blind superstition. The article promotes the idea of combating ignorance through enlightenment. Indeed, the root of any societal ill lies precisely in ignorance.

ZAMONAVIY ERON ADABIYOTIDA ILMSIZLIKKA QARSHI KURASH G'OYASI

Ziyodaxon Jo'rayeva

1-kurs magistratura bosqichi talabasi

Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

O. Turdiyeva

TDSU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari doktori

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Amuzoda Xaliliy, Eron, guvohnomasizlik, jaholat, qogʻozbozlik, qoloqlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eron zamonaviy boshqaruv tizimidagi byurokratiya tushunchasi va uning jamiyat rivojiga toʻsqinlik qiluvchi salbiy oqibatlarini atroflicha tahlil qilinadi. Amuzoda Xaliliy qogʻozbozlik, ilmsizlik, jaholat xavflarning ortishi kabi omillarni tadqiq etadi. Maqolada ilmsizlikka qarshi maʼrifat bilan kurashish gʻoyasi ilgari suriladi. Zero, jamiyatdagi har qanday illatlarning ildizi aynan jaholatga borib taqaladi.

ИДЕЯ БОРЬБЫ С НЕВЕЖЕСТВОМ В СОВРЕМЕННОЙ ИРАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Зиёдахон Джураева

Высшая школа иранистики и афганистики

Студентка магистратуры, 1 курс

Ташкентский государственный университет востоковедения

О. Турдиева

Доцент Ташкентского государственного университета востоковедения

Высшая школа иранистики и афганистики, доктор филологических наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Амузода Халили, Иран, отсутствие документов, невежество, бумажная волокита, отсталость.

Аннотация: В этой статье проводится подробный анализ понятия бюрократии в современной системе управления Ирана и её негативных последствий, препятствующих развитию общества. Амузода Халили рассматривает такие факторы, как бумажная волокита, невежество и рост суеверий. В статье выдвигается идея борьбы с невежеством посредством просвещения. Действительно, корень любых общественных бед заключается именно в невежестве.

Kirish. Ilm insonga berilgan buyuk neʼmat boʻlib, matonat va harakat bilan erishiladigan mashaqqatli yoʻldir. Ilm inson tafakkurining eng oliy mahsuli boʻlib, jamiyat taraqqiyoti, madaniy yuksalish va ijtimoiy ong shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Ilm orqali inson tajriba va kuzatuvlarga asoslangan holda haqiqatni anglashga intiladi, mavjud bilimlarni tahlil qiladi va yangilarini yaratadi. Shu bois ilm nafaqat shaxsning intellektual kamolotini taʼminlaydi, balki jamiyatning maʼnaviy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ilmsizlik jamiyat taraqqiyotining eng jiddiy toʻsiqlaridan biri hisoblanadi. Ilmga bepisand munosabat ijtimoiy tafakkurning sustlashuviga, yangicha qarashlar va innovatsion gʻoyalarning cheklanishiga olib keladi. Bilimsizlik koʻpincha shaxsiy masʼuliyatdan qochish vositasiga aylanib, mavjud muammolarni “taqdir” yoki “sharoit” bilan oqlashga xizmat qiladi. Bunday muhitda tanqidiy fikrlash zaiflashadi, natijada xurofot, asossiz bidʼatlar va soxta qarashlar keng tarqaladi. Ilmsizlik

madaniy va ma'naviy qadriyatlarning yuzaki talqin qilinishiga sabab bo'lib, ularning asl mohiyatini anglashga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, ilmiy salohiyatning yetishmasligi jamiyatning zamonaviy taraqqiyot jarayonlaridan ortda qolishiga olib keladi. Shu bois ilmsizlikka qarshi kurash nafaqat ta'lim tizimining, balki har bir shaxsning muhim ijtimoiy va ma'naviy burchi sifatida namoyon bo'ladi.

Eron bolalar adabiyotining yorqin namoyandasi Faridun Amuzoda Xaliliy "Guvohnomasizlar" hikoyasida aynan yuqorida ta'kidlangan masala, ya'ni ilmsizlik masalasini obrazlar vositasida inson his-tuyg'ulari va ongiga ta'sir etadigan shaklda aks ettirdi. Personaj ichki dunyosini uchinchi shaxs tomonidan ko'rsatish usuli ham o'z afzalliklariga ega. Ruhiiy tasvirning bu shaklida muallif o'quvchini hech qanday cheklashlarsiz qahramon ichki dunyosining barcha yashirin puchmoqlariga kiritib, uning ichki olamini batafsil hamda chuqur ko'rsata oladi. Yozuvchi uchun qahramon ichki olamining sirli va noma'lum joyi yo'qligi sabab ichki ruhiy jarayonlarni eng mayda tafsilotlarigacha biladi va ularda sodir bo'layotgan katta-kichik o'zgarishlarni tasvirlab bera oladi. Bayonchi-yozuvchi qahramonning o'y-fikrlari, his-tuyg'ularini sharhlay oladi, uning ruhiyatida yuz bergan, ammo obrazning o'zi yo bilmagan yoxud u haqida so'zlashni istamagan nozik holatlar haqida ham hikoya qila biladi. Faridun Amuzoda Xaliliy ham Abdulloh personaji orqali hikoyadagi barcha muammolarni batafsil ochib bera oldi. Hikoya syujeti ukasini maktabga joylashtirmoqchi bo'lgan aka va yoshi katta bo'lib qolsa-da hali ham savodi yo'q uka Abdullohning guvohnoma olish uchun boshidan o'tkazgan mojarolari haqida. Hikoyaning asosiy mavzusi jamiyatda kuchsiz qatlamning ezilishi va bunga tomoshabin bo'lib qolayotgan insonlar fojeasidir. Muallif voqealar rivoji orqali shaxsiy manfaat, qo'rquv va loqaydlik insoniylikning so'nib borishini ko'rsatadi. Asarda ijtimoiy tengsizlik nafaqat tashqi muammo sifatida, balki inson ongidagi axloqiy muammo sifatida talqin etiladi. G'oyaviy jihatdan asar o'quvchini bevosita xulosa chiqarishga majbur qiladi: jamiyatdagi adolatsizlik faqat zolimlar sababli emas, balki sukut saqlayotganlarning ko'pligi tufayli ham davom etadi. Shu yerda bir savol tug'iladi. Jamiyatning ilmsiz va loqaydligiga insonlarning o'zi aybdormi yoki hukumatmi? Bu savolning javobini hikoyadan keltirilgan quyida misollar orqali ko'rib chiqamiz:

گفت: مگر هنوز نرفتی مدرسه اسمت را بنویسی؟

گفتم: نه، کسی نبود که من را ببرد.

"کسی نبود؟! خودت مگر چلاقی؟! مگر این همه که می روند، کسی را دارند؟ -

"-Unda hali ham maktabga borib otingni yozdirmadingmi?

-Yo'q. Meni maktabga olib boradigan hech kim yo'q-ku?!

-Hech kim yo'q? O'zingning oyog'ing singanmi? Maktabga borayotgan shuncha bolani biror kishi ergashtirib borayotgan ekanmi?..."

Yuqoridagi parchada Abdulloh uni maktabga o'zi emas albatta kimdur olib borishi kerak deb hisoblaydi. Ko'p insonlar ularning rivojlanishlari va o'sishlari uchun boshqalar harakat qilishga

majburdek deb hisoblashadi. Ba'zi insonlar bu narsani ota-onasidan kutsa, ba'zi insonlar buni jamiyatdan, hukumatdan kutadi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olmay, boshqaga yuklaydi. Bu xuddi narx-navo qimmatlashganda aybdorni qidirayotgan bir kishiga o'xshaydi. Vaholanki, ishlab, harakat qilsa ham bo'ladi, ammo bu qatlamdagi insonlar o'sish va rivojlanishni o'z zimmasiga olishdan ko'ra, uni boshqalar yelkasiga yuklab qo'yishni afzal ko'rishadi. Hikoyadagi obrazlar tipik xususiyatga ega. Kitobxon bunday qahramonni o'qiganda: "Men bu odamni taniyman, hayotda ham xuddi shunaqalar ko'p" deb his qiladi. Ya'ni, yozuvchi alohida bir shaxsni tasvirlash orqali ijtimoiy borliqdagi katta bir muammoni yoki guruhni ko'rsatib beradi. Har bir qahramon muayyan ijtimoiy qatlam yoki axloqiy holatni ifodalaydi. Muallif obrazlarni ideallashtirmaydi, balki ularni real hayotdagi odamlar kabi murakkab va ziddiyatli holda tasvirlaydi.

از آن طرف به خیر الله که فکر میکردم، دلم قرص میشد. برای خیرالله هیچ کاری، نشد نداشت. حتی پدر و مادرم و " همه جوانها و بزرگهای حلبی آباد از او حرف شنوی داشتند. توی هر کاری که قدم می گذاشت، تا تمامش نمیکرد، دست بر نمی داشت. از پس هر کاری هم بر می آمد. من همیشه آرزو میکردم به اندازه او بزرگ شوم و هیكل و یال و کوپالی به هم بزنم و ریش و سبیلی در بیاورم تا همه آدمها از من حساب ببرند "

"Ammo boshqa tomondan Xayrullohni o'ylasam, yuragim dadillashardi. Chunki Xayrulloxning qila olmagan ishi yo'q edi. Hatto ota-onam va Xalabiyobodning barcha katta-kichigi uning gapiga quloq solishardi. Biror ishga qo'l uradigan bo'lsa, to uni tugallamaguniga qadar undan qo'l tortmasdi. Har qanday ishning uddasidan ham chiqardi. Men ham xuddi akamday katta bo'lsam, barcha odamlar bilan hisoblashishlarini orzu qilardim"

Boshqa tomondan qaralsa, xuddi shu qishloqda katta bo'lgan, shu ota-onaning tarbiyasini olgan, shu muhitda katta bo'lgan Xayrulloh ham ilm olishni, maqsadi sari intilishni va jamiyatda o'z o'rnini topishni uddasidan chiqqan. Shunday ekan, bu muhitda yashayotgan boshqa savodsiz bolalar va bee'tibor qatlamning bu holatiga hukumatni, siyosatchilarning bepisandligini aybdor deb topish noto'g'ri. Shaxsiy guvohnomaning inson uchun jamiyatdagi ahamiyati juda katta bo'lib, u har bir fuqaroning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida asosiy o'rin tutadi. Avvalo, shaxsiy guvohnoma insonning rasmiy shaxsini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Jamiyatda kim ekaningiz, qayerda tug'ilganiingiz, fuqarolingiz va yoshingiz aynan shu hujjat orqali aniqlanadi. Bu esa huquqiy tartib va ishonchni ta'minlaydi. Shaxsiy guvohnoma orqali fuqaro o'zining huquq va majburiyatlarini amalga oshiradi. Masalan, ishga joylashish, o'qishga kirish, nikohdan o'tish, bank xizmatlaridan foydalanish, saylovlarda qatnashish kabi jarayonlar aynan shaxsni tasdiqlovchi hujjatsiz mumkin emas. Shaxsiy guvohnoma — bu shunchaki hujjat emas, balki insonning jamiyatdagi huquqiy mavqei, erkinligi va mas'uliyatini ifodalovchi asosiy vositadir. Undan to'g'ri va mas'uliyat bilan foydalanish har bir fuqaroning burchidir. Shaxsiy guvohnomasiz inson rasmiy ravishda kim ekanini isbotlay olmaydi. Bu esa davlat va jamiyat oldida huquqiy noaniqlikni keltirib chiqaradi. Ushbu gaplarimizga misol tarzida quyidagi hikoyadan parchani misol qilib keltirishimiz mumkin:

با شنیدن اسم شناسنامه، برق از کله ام پرید. فکر کردم شاید اشتباه شنیده باشم. به خیر الله نگاه کردم. خیر الله گفت: شناسنامه؟!...! - راستش شناسنامه ندارد... یعنی آقای چیز... ما... توی حلبی آباد هیچ کس شناسنامه ندارد. کسی شناسنامه ندارد آقا.

من زود به صورت آقای فیض آبادی نگاه کردم تا ببینم حرف خیر الله را قبول کرده است یا نه. معلوم بود که او تعجب کرده گفت:

شناسنامه ندارید؟! پس میخواهید چه کار بکنید؟ حالا مدرسه هیچی. ولی زندگی کردن توی اجتماع که -
.. شناسنامه می خواهد. اگر شناسنامه نباشد که

“— Marhamat qilib shaxsiy guvohnomangizni bering!

Guvohnomaning nomini eshitishim bilan ko‘zimdan olov chiqib ketgandek bo‘ldi. Xato eshitdimikin, deb o‘yladim. Xayrullohga qaradim.

— Guvohnoma?!... — dedi Xayrulloh. — To‘g‘risi, shaxsiy guvohnomasi yo‘q... Ya‘ni janob... haligi... biz... Halabiyobodda hech kimning shaxsiy guvohnomasi yo‘q. Hech kimning, janob.

Tezda Fayzobodiyning yuziga qaradim: qani, Xayrullohning gaplari ma‘qul keldimi yoki yo‘qmi? U taajjublanib dedi:

— Guvohnomangiz yo‘q?! Unda nima qilib turibsizlar bu yerda. Maktabnikini qo‘ya turing. Ammo shaxsini tasdiqlovchi hujjat kerak bo‘ladigan bu jamiyatda qanday qilib yashaysizlar?! Agar guvohnomasi bo‘lmasa...”

Bu jamiyatdagi xalq shunchalar savodsiz, shunchalar madaniyatsiz-ki, inson hayotida eng kerakli bo‘lgan guvohnoma olishga ham beparvolik bilan qarashadi. Inson har doim o‘zi uchun o‘zi harakat qilishi lozim, u uchun hukumat, raislar, hukumat boshliqlari, mutassaddilar majbur emas. Qishloq aholisi taqdirga tan berib, rivojlanish va ilm olishligi uchun kimdir ularning hayotini o‘zgartirishini kutib yashashgan:

چرا تا به حال نرفتید شناسنامه بگیرید؟ -

چون به ما شناسنامه نمی دهند آقا، هزارتا بامبول در می آوردند.

یعنی تنبلی خودمان هم هست آقا. فرهنگمان پایین است، نابلدیم.

بابا - ننه هایمان نمی دانستند که دنیا دست کیست. نمی دانستند باید برای بچه هایشان، برای خودشان شناسنامه بگیرند تا آنها را اینجا، آنجا راه بدهند. آنها را آدم حساب کنند. بهشان کار بدهند.

آخر این که دلیل نشد.

چرا دیگر آقا، من دارم می گویم، بچه ها همین جور توی زاغه ها به دنیا می آیند، همان جا خاک و خل می خورند و - بزرگ می شوند و می میرند. هیچ کس به هیچ کس نیست! می گویند شناسنامه میخواهیم چه کار؟! نمی دانند آقا، فرهنگشان پایین است.

“— Nega shu paytgacha shaxsiy guvohnoma olishmaganlaring?

— Chunki bizlarga shaxsiy guvohnoma berishmaydi, janob. Mingta bahona to‘qishadi. Bundan tashqari, o‘zimiz ham dangasaroqmiz, janob. Madaniyatimiz past, bilimsiz va nodonmiz.

Onalarimiz dunyo kimning qo‘lida ekanligini bilishmagan. O‘zlari uchun, bolalarining bir kuni kelib o‘z yo‘llarini topib ketishlari, boshqalar ularni odam hisobiga qo‘shishlari, ularni maktabga qabul qilishlari uchun guvohnoma olishni bilishmagan.

— Axir bu sabab bo‘lolmaydi-ku?!

— Nega endi sabab bo‘lolmas ekan? Axir men aytib turibman-ku: bizda bolalar shundayligicha kulbalarda dunyoga kelishadi, o‘sha yerda chang-tuproq ichida katta bo‘lishadi va o‘sha yerda o‘lib ketaverishadi. Hech kimning ular bilan ishi yo‘q. “Guvohnomaning bizga nima keragi bor”, deyishadi. Ha-ha, janob, ular buni bilishmaydi. Madaniyatlari judayam past...”

Kitobxon muayyan asar bilan tanishar ekan, eng avvalo, unda tasvirlangan voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishlarga, ana shu voqealarda ishtirok etgan personajlar xatti-harakati, ruhiy kechinmalariga e‘tibor beradi. Asar voqealari tizimidagi o‘zaro bog‘lanishlarning dalillanish darajasi, personajlar o‘rtasidagi rang-barang munosabatlarning chuqur asoslanishidan ta’sirlanadi. Amuzoda Xaliliyning ushbu hikoyasida guvonoma olish uchun qahramonlarning idorama-idora sarson bo‘lishi, mutasaddilarning turli bahonalar bilan mas’uliyatdan qochishi jamiyatdagi tizimli muammolarni fosh etadi. Hikoya so‘ngida hech qanday natijaga erisha olmagan aka-ukaning otasi vafot etadi. Endi otani dafn etish uchun yana “vafot etganlik tog‘risida guvohnoma” kerak bo‘ladi. Hikoyaning oxiri ochiq. Ular guvohnomalarni ola olishadimi, yo‘qmi, o‘quvchi o‘zi xulosa qilishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu hikoya jamiyatda shakllangan axloqiy loqaydlik va mas’uliyatsizlik muammosini badiiy-realistik yo‘sinda yoritgan muhim asardir. Amuzoda Xaliliy inson va jamiyat munosabatini markazga qo‘yib, muammolarni ochiq bayon etgan. Asarda ayrim obrazlar voqealarga nisbatan ichki norozilikni his qilsa-da, bu norozilik amaliy harakatga aylanmaydi. Zamonaviy bolalar adabiyotida hayotiy misollar bilan bolalar orqali muammolarni badiiy talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoya janri esa qisqa hajmda chuqur mazmun berish imkoniyati bilan ajralib turadi. Tahlil qilinayotgan hikoya ham jamiyatdagi mavjud muammolarni oddiy voqea va obrazlar orqali ochib berishga urinadi. Asar markazida inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, befarqlik va ma’naviy mas’uliyat masalasi turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Faridun Amuzoda Haliliy “Buloqchanning safari”, Toshkent 2010
2. فریدون عموزاده خلیلی. سفر چشمه کوچک
3. Б. Саримсоқов “Бадийлик асослари ва мезонлари”, Тошкент 2022
4. Қозоқбой Йўлдош Мухайё Йўлдош “Бадий таҳлил асослари”, Тошкент 2016
5. <https://scholar.google.com/>